XALQ DEPUTATLARI URGUT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 19-mart VII-7-34-7-105-K/25 Urgut tumani

Tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Budjet kodeksi”ning 126-moddasiga muvofiq, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 4-fevraldagi 01/01-38/19-sonli xulosasiga asosan tuman mahalliy budjetining 2025-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘larini yo‘naltirish maqsadida xalq deputatlari Urgut tuman Kengashining yettinchi chaqiriq navbatdagi yettinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1.Tuman mahalliy budjetining 2025-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan 673 500,0 *(olti yuz yetmish uch million besh yuz)* ming so‘m mablag‘lar 1-ilovaga muvofiq tadbirlar uchun ajratilsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosarlari hamda tuman tashkilotlarining rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishini ta’minlasin.

3. Urgut tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Sh.To‘ychiyev), tuman G‘aznachilik xizmati bo‘limi (O‘.Ochilov) ajratilgan mablag‘lardan amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qilsin.

4.Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Urgut tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (O.Azimurodov), tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (U.Kamolov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



JABBOROV BOTIR
SHUKUROVICH

Xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining
2025-yil 19-martdagi
VII-7-34-7-105-K/25 -son qaroriga
1-ilova

№	Manba	Mablag‘ ajratiladigan tashkilotlar va hududlar nomi	Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi	Ajratiladigan mablag‘ miqdori *(ming so‘m)*
1	Tuman mahalliy budjetning 2025-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari	Tuman hokimligi	Tumandagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer fondi toifasini o‘zgartirish bo‘yicha ishlab chiqilgan loyihalari uchun to‘lov	50 000,0
			Tumandagi "Obod qishloq" dasturiga kiritilgan Mo‘minobod mahallasiga kuzatuv kameralari o‘rnatish uchun	50 000,0
			"Vatan" jurnali obunasi uchun	136 800,0
		Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	Tumandagi umumta’lim maktablariga 64 dona zamonaviy kompyuter jamlanmasi sotib olish uchun	320 000,0
		Axborot kutubxona markazi	"Arosatdagi odamlar" badiiy kitobi 100 dona sotib olish uchun	8 000,0

		Tuman hokimligi	Tuman hokimligi boshqaruv apparati va tuman hokimligi ayrim toifadagi hamda Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tuman Xalq qabulxonasi, xodimlarini ustama va rag‘batlantirish uchun	108 700,0
	Jami		**x**	**673 500,0**